

ZUNNURAYN-IKKI NUR SOHIBI

Dinora Eshboyeva,

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi, 2-bosqich talabasi

dinoraeshboyeva23@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada xulafoi roshidinlarning uchinchi, jannat bashorati berilgan o'n sahobiyning biri, ilk musulmon bo'lgnardan va Zunnurayn - ikki nur sohibi - Usmon ibn Affonning hayotlari va fazilatlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: nasablari, Zunnurayn, Abu Amr, Abu Abdulloh, G'aniy, Ruqayya, Ummu Kulsum, Tabuk g'azoti, Badr g'azoti, Uhud g'azoti.

Nasablari:

Nasabshunos olimlar ta'kidlaganidek, Usmon raziyallohu anhoning nasablari quyidagicha: Usmon ibn Affon ibn Abul Os ibn Umayya ibn Abdushshams ibn Abdumanno夫 ibn Qusay. Onalari Arva bintu Qurayz ibn Robia ibn Habib ibn Adushshams ibn Abdumanno夫 ibn Qusay bo'lib, onalari islomni qabul qilgan va Usmon r.a xalifalik davrida vafot etgan. Ulug' sahobiyning onalarining onasi Payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallamning ammalari Bayza bintu Abdulmuttolibdir[2]. Nasablari Abdumanno夫da Payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallam bilan tutashadi. Manbalarda qayd etilishicha, "Abu Amr", "Abu Abdulloh" degan kunyalari, "G'aniy", "Zunnurayn" degan laqablari bo'lgan. Arablar odatiga ko'ra, biror kishiga birinchi farzandining ismidan kelib chiqib, "falonchining otasi" yoki "falonchining onasi" deb kunya berilgan. Shu boisdan, Usmon r.a ning johiliyat davrida Ummu Amr bintu Jundub Davsiyadan tug'ilgan farzandiga nisbatan "Abu Amr" deb kunyalangan. "Abu Abdulloh" deb kunyanishiga sabab Ruqayya r.a dan tug'ilgan farzandlari Abdulloh bo'lgan. Ammo u 6 yoshida vafot etgan.

Usmon r.a juda ham boy bo'lganligi uchun "G'aniy" (badavlat) deb atalgan. "Zunnurayn" (ikki nur sohibi) deb atalashiga sabab Payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallamning ikki qizlar Ruqayya va Ummu Kulsumga uylanganligi tufaylidir[1]. Ba'zilar u to'g'risida Rasulullohning: "Usmon osmon axdining nuri, yer ahlining chirog'I", deganlari uchun mazkur nomga sazovor bo'lganini ham aytishadi. Ayrimlar esa: "Tunda Qur'on karimni namozda o'qib xatm qilganlari uchun", deydilar. Chunki Qur'on bir nur, kechasi ibodatda qoim bo'lish yana bir nurdir[4]. Usmon r.a Fil voqeasidan 6 yil o'tib Toif shahrida tug'ilgan. Uning 17 nafar (11 nafar o'g'il va 8 nafar qiz) farzandi bo'lgan.[1]

Islomga kirishlari va Makkadagi islomiy hayotlari

Manbalarda ta'kidlanishicha, Usmon r.a Payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallam haqida dastlab xolasi Sadaa bintu Qurayzdan eshitgan. U Abu Bakr r.a ning oldilariga ko'p borar edi. Shu kuni ham u Abu Bakr r.a ning oldilariga boradi va bu haqida so'raydi. Shunda Abu Bakr r.a bu haqiqat ekanligi va but-sanamlar foyda ham zarar ham bermaydigan, eshitmaydigan, ko'rmaydign toshlar ekanligini aytadi. Usmon

r.a Abu Bark Siddiqning targ‘ibotlari bilan musulmon bo‘ladilar. Bu paytda Usmon r.a 34 yoshda edilar va islomga kirgan datlabki 9 kishining biri bo‘ldilar. Islomga kirganligining xabari amakisi Hakam ibn Abul Osga yetib borgach, u Usmon r.a ni arqon bilan bog‘lab qo‘yib islomdan qaytishini talab qiladi. Ammo Usmon r.a ning islomdan qaytmasligini ko‘rib, noiloj holda uni qo‘yib yuboradi[2].

Usmon r.a Payg‘ambarimiz sallollohu alayhi vasallamdan Ruqayya r.anis so‘raydi. Payg‘ambarimiz sallollohu alayhi vasallam rozi bo‘ldilar va Usmon r.a ga ikki nurning biri noil bo‘ldi. Ularning oilalariga hamma havas qilishardi. Ular farzandli bo‘lishgach, unga Abdulloh ismini qo‘yishdi va Usmon r.a “Abu Abdulloh” kunyasiga ega bo‘ldi.

Ammo Makkadagi mushriklarning musulmonlarga bergan azob-uquqbatlari kuchayib bordi. Musulmonlar bu aziyatlardan shikoyat qilib birin-ketin Payg‘ambarimiz sallollohu alayhi vasallamning huzurlariga kelishdi. Ular qatorida Usmon r.a va uning suyukli rafiqasi Ruqayya r.a ham bor edi. Muhammad sallollohu alayhi vasallam ularga Habashistonga hijrat qilishni maslahat berdilar. Musulmonlar Habashistonga hijrat qilishdi, ular qatorida Usmon r.a va Ruqayya r.a ham bor edi. Bayhaqiy Katoda roziyallohu anhudan rivoyat qiladi: “Albatta, Usmon ibn Affon roziyallohu anhu Allohu taologa o‘z ahli bilan hijrat qilgan avvalgi shaxsdir. Nazr ibn Anasdan eshitdim. U Abu Hamzadan, yani, Anasdan quyidagilarni eshitgan ekan: “Usmon ibn Affon Habashiston yeriga chiqdi. U bilan uning ayoli Ruqayya roziyallohu anho, yani, Rasulullohu sollallohu alayhi vasallamning qizlari ham birga edi. Ularning xabari Rasulullohu sollallohu alayhi vasallamga kelmay qoldi. Qurayshdan bir ayol keldi. U: “Ey Muhammad, kuyovingni ko‘rdim. U bilan ayoli ham bor ekan”, dedi. **“Ularni qay holda ko‘rding?”** dedilar u zot. “Ayolini anavi kichkina jonivorlardan bir eshakka mindirib olib, o‘zi haydab ketayotganini ko‘rdim”, dedi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **“Alloh yorlari bo‘lsin. Usmon Lut alayhissalomdan keyin o‘z ahli bilan hijrat qilgan avvalgi shaxsdir”**, dedilar”[2].

Musulmonlar Habashistonda ekanligida Makka haqida ko‘ngillarini tinchlantiruvchi xabarlar kela boshladi. Ona yurtini sog‘ingan musulmonlar tezroq Makkaga qaytishga oshiqar edi. Ular Makkaga qaytganida mushriklarning azoblar avvalgidan ham shiddatli tus olganligini ko‘rdi. Ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng Madinaga hijrat qilishga ruxsat berildi.

Madinadagi hayotlari

Madinada Usmon r.a va Ruqayya r.a birgalikda hammaga ibrat bo‘la oladigan hayot kechirishdi. Ammo bu birgalikdagi osoyushta hayot uzoqqa cho‘zilmadi. Hijriy 2 asrda Badr urushi bo‘lib o‘tdi. Ammo Usmon r.a ushbu urushda qatnasholmadi. Chunki Ruqayya r.a ning badaniga toshma toshib og‘ir ahvolda yotganligi uchun Payg‘ambarimiz sallollohu alayhi vasallam Usmon r.a ga u bilan qolishini amr etdi va uni urush qatnashchilari ro‘yxatiga kiritib, o‘ljalardan u kishiga ham ulush ajratdi. Badr urushi tugagach Ruqayya r.a vafot etdi. Bu Usmon r.a uchun ulkan aziyat bo‘ldi. “Usudul G‘oba”, “Muxtasari tarixi Dimashq” va boshka kitob sohiblari ulkan sahobiy Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar: “Usmon o‘z ayoli, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning qizlari Ruqayya vafot etganida yig‘ladi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **“Seni nima yig‘latmoqda, ey Usmon”**, dedilar. “Sizdan qudachilik aloqam uzilib qolganiga yig‘lamoqdam”, dedi Usmon. **“Mana, Jabroil**

alayhissalom menga Alloh azza va jallaning (Ruqayyaning) singlisini nikohlashim haqidagi amrini yetkazmoqda”, dedilar u zot. Boshqa bir rivoyatda: “Senga uning singlisini–Ummu Kulsumni uning mahriga o‘xhash mahr va muomalasiga o‘xhash muomala sharti ila nikohlab berishim haqida”, deyilgan ekan[3].

Usmon r.a juda ham sahovatpesha inson edi. U kishi juda ham boy bo‘lib, Alloh uning boyligiga O‘zi baraka bergandi. Madinada qurg‘oqchilik bo‘lgan paytda u kishi Ruma qudug‘ini bir yahudiydan sotib oldi va uni musulmonlarga taqdim etdi. Musulmonlar bilan bir qatorda turib quduqdan suv olib yurdi. Bundan tashqari, Tabuk g‘azoti paytida Madinda qurg‘oqchilik avjiga chiqqan, mevalar endi pishib yetilayotgan edi, boshqa tarafada esa katta dushman Rum qo‘smini bor edi. Shu paytda urush qilish esa juda og‘ir edi. Shuning uchun Payg‘ambarimiz salollohu alayhi vasallam hammaga urushga otlanishni va boy-badavlatlar quroslasha uchun kambag‘allarga ehson qilishga amr etdi. Usmon r.a ming dinorni urush uchun berdi va askarlardan 600 tasini egar-jabduq bilan ta’minladilar. Shunda Payg‘ambarimiz salollohu alayhi vasallam: “**Bundan keyin Usmonga nima qilsa ham zarar kelmaydi**” dedilar[3].

Abu Bakr Siddiq va Umar ibn Xattob r.a xalifalik davlarida ham ularga davlat ishlarida yordam berdi va maslahatchisi bo‘ldi. Umar r.a ning vafotidan so‘ng xususiy saylov usulida xalifalikka tayinlandi. Uning xalifalik davrida Qur’oni Karim musxaf holiga keltirildi, Masjidul Haram ta’mirlandi, Masjidi Nabaviy kengaytirildi, masjidlarning xushbo‘y qilindi, qo‘riqxonalar tashkil etildi, muazzinlarga maosh berildi, mirshabliklat tashkil etildi va ko‘plab hududlar fath etildi. Ammo xalifalik davrida fitnachilar musulmonlarning birligiga zarba berishni maqsad qilib Usmon r.a ga qarshi fitna tayyorlay boshladi va uning uyini qamal qilishdi. Hijriy 35-yil Zulhijjaning sakkizinchisida, juma kuni fitnachilar Usmon r.a ni o‘ldirishdi. Uning xalifaligi sakkiz kuni kam o‘n ikki yil davom etdi[4].

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 101 ulug‘ sahobiy. Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2017.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot 22-juz.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. 1-juz – T.: “Hilol nashr” 2021.
4. <https://islom.ziyouz.com/siyrat/xalifalar/usmon-ibn-affon-r-a>